

UMARSHAYX MIRZO QO'L OSTIDAGI MO'G'UL BEKLAR

Maxmudov O'ktamjon Muxsinjon o'g'li

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti o'qituvchisi

maxmudovoktamjon0@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning otasi Umarshayx mirzoga xizmat qilgan mo'g'ul beklari haqida, ularning Bobur davridagi faoliyati haqida ham umumiy mulohazalar beriladi.

Kalit so'zlar: Umarshayx mirzo, Bobur, mo'g'ul beklari, Samarqand, Andijon, Mahmudxon.

Annotation:

In this article, general comments are made about the Mongolian begs who served Umarshaikh Mirza, the father of Zahiriddin Muhammad Babur, and about their activities during the time of Babur.

Keywords: Umarshaikh Mirza, Babur, Mongol begs, Samarkand, Andijan, Mahmud Khan

Temuriylar davrida mirzo va shahzodalarning kuch-kudrati, shubhasiz ularning qo'l ostidagi beklarining kuchi, soni va sadoqatiga, asosan, bog'liq edi. Bunday beklar temuriy shahzodalarga yoki otasidan keyin unga xizmat qilgan yoki shahzodalar tarafidan tanlanib beklik lavozimigacha ko'tarilgan. Bunday beklar o'z qabilaurug'i ichida yuqori martabaga ega va ma'lum sonli harbiy qo'shinga ega shaxslardir. Shu boisdan ham temuriylar davrida ular o'zlari xizmat qilayotgan shahzodaning kuch-qudratini belgilashda muhim rol o'ynagan.

Amir Temurning o'g'li Mironshoh mirzoning nabirasi Abu Said mirzoning o'g'li Umarshayx mirzo qo'l ostida ham bir qancha beklar xizmat qilgan bo'lib, bu haqidagi ma'lumotlar, asosan "Boburnoma"da keltiriladi. Umarshayx mirzoga xizmat qilgan beklarni turkiylar va mo'g'ullarga bo'lib o'rganish mumkin. Garchi avvalda mo'g'ul qabilalari tarkibida qavchin, arlot kabi qabilalar kelgan bo'lsada, so'zlanayotgan davrda bu qabilalar butkul turkiylashib ketgan edi. "Boburnoma"da ham faqatgina Mo'g'uliston hududidagi xalqlarga nisbatan "mo'g'ul" atamasi

ishlatilgan. Shu bois biz ham ushbu maqolada ikki xil vaziyatdagi mo‘g‘ul beklari nomini keltirdik, ya’ni asli mog‘ul bo‘lib temuriylar xizmatida yurganlar va vaqtinchalik harbiy maqsadda kelgan mo‘g‘ul beklari.

Turkiy qabilalardan chiqqan beklar tushunarli-ki mahalliy zodagon sulola vakillaridandir. Ular bu martabaga o‘z ajdodlari kabi temuriy shahzodalarga xizmat qilishlari orqali erishib kelgan. Garchi u davrda mo‘g‘ul beklarining temuriy mirzolar atrofida xizmat qilishi odatiy hollardan biri sanalsa-da, Umarshayx mirzoning mo‘g‘ul beklari uning xotini ya’ni Boburning onasi Qutlug‘ Nigorxonimning mo‘g‘ul naslidan ekanligi bilan ham bog‘liq.

Qutlug‘ Nigorxonim Chig‘atoj naslidan bo‘lgan Yunusxonning ikkinchi qizi edi. Abu Said mirzo Mo‘g‘ulistonga yurish qilib Esan Bug‘axonni yenggach, avvalroq Ulug‘bek tomonidan Iroqqa yuborilgan Yunusxonni 1457-yillar atrofida [3:286] olib keladi va uni Mo‘g‘ulistonga xon qilib ko‘taradi. Tarixchi mirzo Muhammad Haydar dug‘latning “Tarixi Rashidiy” asarida keltirilishicha shundan ikki buyuk sulola Temuriylar va Chingiziylar o‘rtasidagi eski dushmanlik do‘stlikka aylanadi. Abu Said va Yunusxon o‘rtasidagi bunday samimi munosabat ota va o‘g‘illarda ham kam uchrashligini qayd etgan. [2: 155] Shundan bu o‘rtada yaqinlik bo‘lib, keyinchalik Yunusxonning katta qizi Mehr Nigorxonimni Abu Said katta o‘g‘li Ahmad mirzoga, Sulton Nigorxonimni Mahmud mirzoga va Qutlug‘ Nigorxonimni esa kenja o‘g‘li Umarshayx mirzoga olib bergen edi. Shu boisdan ba’zi mo‘g‘ul beklari doimiy ba’zilari esa yordam tariqasida Boburning tog‘alari Ahmadxon va Mahmudxon tomonidan jo‘natilib Umarshayx mirzo va Boburga xizmat qilishgan. Ammo, ta’kidlash kerakki ko‘pincha mo‘g‘ul beklarini o‘lja qiziqtirgan. Shuning uchun, ular tomonidan xiyonatkorona harakatlar ko‘p bora uchrab turgan. Masalan, Bobur Samarqandni ilk marotaba egallaganda shaharda oziq ovqat tanqisligi mavjud edi. Bunday vaziyatda mo‘g‘ul beklarining hammasi Boburdan, Samarqanddan qochib ketishadi. Ular orasida Ibrohim Bekchik, Xonquli, Bayonquli kabi mo‘g‘ul beklar bor edi.

Ali Do‘s^t tag‘oyi – Boburning buvisi Eson Davlatbegimga urug‘ bo‘lgan. Bobur unga salbiy ta’rif berib yadachilikni ham da’vo qilishini yozgan[1: 37]. Jahongir mirzo va Bobur o‘rtasidagi mojaro paytida Boburning og‘ir hastaligi haqida eshitib Andijonni Ahmad Tanbalga topshirgan. O‘zi esa Marg‘ilonda hokimlik qilardi. Bobur Samarqanddan va Andijondan ayrilib sargardonlik mahalida Boburga odam yuborib uni kechirishini so‘raydi va unga Marg‘ilonni topshirishini bildiradi. U

yerda tog‘asi Mahmudxon dan yordam sifatida kelgan mo‘g‘ul beklari va viloyatlardan kelgan kuchlar hisobiga biroz kuch to‘plab, keyinroq 1499-yilda Bobur Andijonni yana qaytib oladi. Bobur ikkinchi marta Samarqandni olganidan keyinroq Ali Do‘s t kuydurgi kasalligidan vafot etadi.

Mir G‘iyos tag‘oyi – Ali Do‘s tag‘oyining inisi bo‘lib Bobur unga “Mo‘g‘ul mirzodalari ichida Sulton Abu Said mirzo saltanatida uning oldiga tushadigan kishi yo‘q edi, Abu Said mirzoing to‘rtburchak muhri unda turar edi” [1:37] – deb ta‘rif bergen. Umarshalayx mirzoning o‘limidan so‘ng biroz muddat Boburga xizmat qildi so‘ng 1494-yilda Koson Mahmudxon qo‘liga o‘tgach u ham Mahmudxon tarafiga o‘tib ketadi.

Qanbar Ali – otboqarlardan bo‘lib otasi qassob bo‘lganligi uchun uni qassob deb ham atashlarini Bobur yozib qoldirgan[1:37]. U Bobur bilan ko‘p vaqtlar birga bo‘lgan ba’zan hiyonat ham qilgan. Xo‘jand unga berilgan bo‘lib, Bobur Andijonni olgach Konibodom va Isfarani ham unga beradi. Bobur beklaridan eng ko‘p lashkarga ega va viloyatga ega bo‘lgani shu edi. Bobur Jahongir va Ahmad Tanbalga Andijonni olish uchun 1499-yilda hujum qilgan paytda Bobur tarafida turib Boburga sulh tuzishni maslahat qilgan beklar ham aynan Qanbar Ali va Ali Do‘s edilar. Garchi Bobur buni istamasa-da bu ulug‘ beklarning unga hiyonat qilib Jahongir mirzo tarafiga o‘tib ketishi ehtimolidan bu sulhga rozi bo‘ladi. Sulhga ko‘ra: Xo‘jand suvining Aksi tarafidagi hududlar Jahongirga, Andijon tarafidagi hududlar Boburga o‘tadi. Shuningdek, Samarqand egallangan taqdirda Andijon Jahongir mirzoga berilishi lozim edi. 1501-yilgi Saripulda ro‘y bergan Shayboniyxonga qarshi mag‘lubiyatdan keyin Qanbar Ali Boburni tashlab Xisravshox huzuriga ketadi. Keyinroq yana birlashib sargardonlik vaqtlarida u Bobur bilan birga bo‘ladi.

Tulun Xo‘ja borin urug‘idan bo‘lib Umarshalayx mirzo unga lavozim berib e’zozlagan. Keyinchalik Bobur ham unga e’tibor qaratib bek qilib oladi. Boburning aytishicha u mo‘g‘ullar ichidagi eng ishonchli odamlaridan biri edi[1:60]. Bobur Samarqandni ilk marta egallab, undan ba’zi amirlari yuz o‘girgan paytda Ahmad Tanbal va Uzun Hasan Tulun Xo‘jani tutib o‘ldiradi.

Bulardan tashqari, Umarshalayx mirzoga va keyinchalik Bobur mirzoga xizmat qilgan mo‘g‘ul beklari ham bor, lekin ular ma’lum vaziyatlardagina ularga yordam berib o‘zlariga tegishli o‘ljani olib qaytib ketishgan. Masalan, Bobur Andijonni 1499-yilda qayta egallagach tog‘asi Mahmudxon tomonidan yuborilgan mo‘g‘ul beklariga ruxsat beradi. Bunday beklar yuqorida aytilgandek o‘lja uchun jang qilishib hiyonat

hollari ham uchrab turgan. Jumladan, Saripul jangida Mahmudxon tomonidan yordamga kelgan mo‘g‘ul beklari Shayboniyxonga qarshi kurashish o‘rniga Boburning lashkargohini talash bilan cheklanib ortga qaytadi. Boburning yozishicha ularning odati shu bossa ham o‘lja oladi, bostirsa ham o‘z elini talab o‘lja oladi [1:81].

Garchi mo‘g‘ullar orasida (Toshkent Mahmudxonga tegishli bo‘lgan paytlarda) Bobur qiyin paytlari birmuncha vaqt o‘tkazgan, tog‘alari orqali mo‘g‘ullar bilan yaxshi munosabatda bo‘lgan bo‘lsa-da, mo‘g‘ul beklari haqida salbiy fikrlar keltiradi. “Boburnoma”da aytilishicha “Hamisha yomonlik va buzuqchilik mo‘g‘ul ulusidan sodir bo‘lib kelgandir. Hozirgacha besh marta men bilan yovlashdilar. Menga munosabatsizlikdan yovlashganlari yo‘q. Bunday harakatlarni ular o‘z xonlariga nisbatan ham takror-takror qildilar” [1:67].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома / Нашрга тайёрловчи Порсо ШАМСИЕВ, Содик МИРЗАЕВ, Эйжи МАНО ва Сайдбек ХАСАНОВ. – НМИУ: “О‘qituvchi”. 2008.
2. Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аёзий. Тарихи Рашидий / Нашрга тайёрловчи, сўз боши, тадбил изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи О.Ё.Жалилов. – Т.: «O‘zbekiston». 2011.
3. B. Usmonov. Sultan Abusaid mirza and Yunuskhan. Central Asian Problems of Modern Science and Education, Vol. 4 [2019], Iss. 2, Art. 105. ISSN 2181-9750.
4. Usmonov, Bahriiddin Ahmedovich. "A Study of Political Processes in the Fergana Valley In 1371-1376. "Design Engineering" (2021): 6174-6187.
5. A. Ziyo. O‘zbek davlatchilik tarixi. –Toshkent: 2001.
6. Bo‘riboy Ahmedov. Tarixdan saboqlar. – T.: “O‘qituvchi”. 1994.